

## **Bola nutqining normal rivojlanishida nutq faoliyatining fiziologik ahamiyati**

**QDPI Maxsus pedagogika kafedrası v/b dotseti,**

**PhD Maxmudova Madinaxon**

**QDPI Maxsus pedagogika “Logopediya”**

**yo’nalishi talabasi Shokirova Nargiza**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nutq harakat ko’nikmalarining paydo bo’lishi asosida bosh miya va artikulyatsiyada nutq faoliyatining fiziologik asoslari, nutqni inson faoliyatini boshqarish vositasidagi xotira va idrok jarayonlarini ahamiyati va uning bola hayotidagi turli funksiyalarni amalga oshirishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar.** Nutq, bilish, jarayon, nutqiy fiziologiya, harakat analizator, lab va til faoliyati, markaziy nerv sistemasi, 12 juft nervlar, periferiya, artikulyatsiya.

Nutq bola hayotida turli funksiyalarni: aloqa qilish, tajribalarni o’zlashtirib olish, faoliyatini boshqarishni bajaradi. Bu sanab o’tilgan funksiyalar maktabgacha ta’lim davrida shakllanadi.

Nutq inson faoliyatini boshqarish vositasidir. U xotira va idrok jarayonlarini tashkil etadi. Shunday ekan bu vazifalarni amalga oshirishda nutqni to’liq rivojlanmagan maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni logopedik mashg’ulotlar yordamida nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog’lom va yetuk, maktabda o’qishga tayyor tarzda nutqini shakllantirish maqsadini ham ko’zlaydi.

Yirik patafiziolog I.V.Davidovskiyning tadqiqotlari bu muammoni hal qilishga katta hissa qo’shdi. Uning yozishicha: «Har qanday asl mazmun sabablardan boshlanib keladi, ya’ni kausallik va determenizm tushunchalaridan boshlanadi. Bu ikki bir-biriga bog’liq, biroq har xil tushunchalar ikki tomonlama talqin etiladi. Birinchi tomondan sababiyat haqida, ya’ni sabab-oqibat

munosabatlari sifatida sharxlansa (aslida «etiologiya» tushunchasining mazmuni shunday bo'lishi kerak), ikkinchi tomondan hodisalar mohiyatini bilish haqida, ya'ni uning asosida yotgan qonuniyatlarni bilish sifatida sharxlanadi».

Nutq faoliyatini shakllanishi uchun quyidagi biologik shartlar zarur: eshituv, ko'ruv, kinestetik analizatorlarning saqlanganligi va nerv tizimining yetilganlik darajasi, tashqi o'bektlardan kelayotgan axborotlar va organizmning o'zidagi retseptorlardan keladigan impul'slarni afferent yo'llar bilan markaziy nerv sistemasiga o'z vaqtida yetkazilishi. Afferentlashtirish tizimi bolada nutqiy harakat, hissiy irodaviy funksiyalarini paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Nutqni idrok etish eshitilgan tovush elementlarini analiz va sintez qilish asosida eshituv va kinestetik analizatorlarning birgalikda ishlashi orqali amalga oshiriladi.

Nutqdagi tovushlar talaffuzi jarayoni murakkab koordinatsiyalashgan artikulyator, harakatlar tizimi hisoblanib, u eng avvalo individual malaka va kinestetik va eshituv analizatorlarining xamkorilikda ishlashi asosida shakllanadi.

Murakkab miya tizimi axborotlarni saqlaydi, qayta ishlaydi va javob harakatlar dasturini ishlab chiqadi. Nutqiy funksional tizim nutqiy ma'lumotlarni uzatishni amalga oshiradi. Buning uchun miyaning harakatli effektiv tizimi qo'llaniladi.

Bu tizimlarni jaroxatlanishida dizartriya kelib chiqadi, bu bevosita nutqning harakat mexanizmini buzulishidir. Nutqda ishtirok etuvchi barcha orgoalar bosh miyadagi 12 juft nervlar orqali inervatsiyalanadi (yuz, til-yutqun, sayyor, til osti va boshqalar). Katta yarimsharlardagi harakat markazlari miya, miya usutidagi kortina-nukemear yo'llar yadrolari bilan bog'liq. Nutqiy faoliyat boshqa faoliyatlar kabi oliy nerv faoliyati bo'lib, reflektor xarakterga ega. Nutqiy reflekslar barcha yarim sharlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ikkinchi signal sistemasini tashkil etadi.

Lablar tilning barcha harakatlari, harakat analizatorlari ishi bilan boshqariladi. Uning funktsiyalari, nutq organlaridan miya qobig'iga kelayotgan ta'sirlarni analiz va sintez qilish, idrok etish hisoblanadi. Nutq harakat maydonida nutqiy harakat farqlash va ularni keta-ketligini tashkil etish amalga oshadi.

Harakat analizatorlarining qobiq osti yadrosi sensomotor qobiq hisoblanadi., u morfologik farqlangan ammao, ular Funktsional birlik sifatida namoyon bo'ladi. Qobiqning old burmalari harakat proektsiyalari maydoni, orqa qismi sensor proektsiyalar maydoni hisoblanadi. Bu tizimlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va aloqadi. Kerakli harakatlar xosil bo'lishi uchun impul'slar zarur guruh muskullarga yo'naltirilishi, yo'nalish va kuchda ham bu impul'slar shu muskullarda joylashishini, zarur harakatlarni hisobga olib shu muskullar harakatini boshlashi kerak. Buning uchun doimo ayni vaqtda tana qismlarini tizimini va xolati haqida signal beruvchi afferent impul'slarni saqlash kerak. Bu funktsiya bosh miyaning orqa markaziy maydoni tomonidan bajariladi. Harakat vazifalarining turg'unligini "kinestetik kuy"ni shakllanish va avtomatizialarini tanlash peshona bo'limida boshqariladi.

Qobiq ostidagi bu maydonlarni yetilmaganligi shunga olib keladiki bola harakatlari kerakli afferent impul'slarni qabul qila olmaydi, o'zining aniqligini yo'qotadi.

Nutqiy muskullardan bosh miya qobig'iga boruvchi kinestetik mipul'slar miya tanasining ko'ruv bo'rtig'ining boshqaruvchi harakatlari kuchayadi va miyaning umumiy va tanlangan (mahsus) nutqiy maydonlarini faollashtiradi, ular nutqiy faoliyatda, ayniqsa bolalar nutqini shakllanishi davrida yetakchi ahamiyatga ega.

Fiziologlar tadqiqotini ko'rsatishicha nutq harakat ko'nikmalarining paydo bo'lishi asosida hususan artikulyatsiyada dinamik stereotiplarni shartli reflekslar tizimining turg'un qayta ishlanishini tashkil yetib, u shartli signallarni ko'p marta ta'siri; ma'lum vaqat va ma'lum tartibda takrorlanishi natijasida shakllanadi.

L.S.Vigotskiy ishlab chiqqan psixik rivojlanishining kontseptsiyasi, bolalik davrida nutq rivojlanishi buzilishining sababini o'rganishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Psixika rivojlanishining atrof muhit ta'siri bilan bog'liqligini tushuntira turib, u «rivojlanishning ijtimoiy vaziyati» tushunchasini kiritdi. Bu o'z navbatida rivojlanishning ichki jarayonlari va tashqi sharoitlarni o'zida namoyon etadi.

Funksional nutqiy tizimning yetilishi asosida afferentatsiya yotadi, ya'ni turli analizatorlar orqali tashqi olamdan signal olish. Birinchi navbatda eshituv analizatori turli xil signallarni va eng avvalo nutqiy signallarni qabul qiladi. Eshituv afferentatsiyasining manbasi bo'lib, bola bilan muloqot qiluvchi katta odam hisoblanadi. SHunga bog'liq ravishda nutqiy muhit va nutqiy muloqotning roli juda kattadir va ularning yetishmovchiligi nutq shakllanishini buzuvchi asosiy sabablardan biri bo'lishi mumkin.

Demak, nutq kamchiligiga ega kishilar orasida yoki nutqiy chegaralangan muxitda tarbiyalanuvchi ilk yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishidan orqada qoladi (kar-soqov ota-onalar yoki yaqqol nutq kamchiligiga ega ota-onalar, uzoq muddat kasalxonada yotish, turli xil og'ir kasalliklar tufayli ijtimoiy kontaktga kirishishning chegaralanganligi).

Bola nutqining normal rivojlanishi uchun muloqot ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi, ijobiy-emotsional tusda kechishi kerak. Unga tovushlarni shun-daygina eshitish kamlik qiladi (radiomagnitafon, televizor). Dastlab ma'lum yosh davri uchun xarakterli asosda kattalar bilan muloqot qilish lozim. Bolani kattalar bilan muloqoti shaklining o'zgarishi nutq rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Demak, hayotining birinchi yili uchun xarakterli bo'lgan emotsional muloqotni 2-3 yoshlarda predmetli-xarakterga almashtirishi uning nutqi rivojlanishiga yaxshigina turtki bo'lib xizmat qiladi. Agarki, bunday o'zgarish yuz bermasa u holda nutq rivojlanishida orqada qolish yuzaga keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.1* (2020).
2. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." *Science Promotion* 1.2 (2023): 98-104.
3. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.
4. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching of sciences in higher education on the basis of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 141-147.
5. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 873-875.
6. Feruza, Teshaboyeva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 546-548.
7. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* (2020): 29.
8. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." *Confrencea* 11.11 (2023): 21-25.
9. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea* 11.11 (2023): 17-20.
10. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinaxan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.
11. Dildora, Madinahan Makhmudova Musayeva. "THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES." *Confrencea* 12.2 (2023): 170-178.
12. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутки то'лик ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа

- тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 12.2 (2023): 179-186.
13. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбиюа ёшидаги болаларни ёзиш ва о'қиш ко'никмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea* 12.2 (2023): 187-192.
14. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Vakhobova Munirakhan Sadirdinovna. "PECULIARITIES OF SPEECH OF CHILDREN WITH MOTOR ALALIA SPEECH DISORDER." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 851-858.
15. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
16. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan. "SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
17. Dildora, Madinahan Makhmudova Musayeva. "THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES." *Confrencea* 4.04 (2023): 170-178.
18. Madinakhan, Makhmudova, and Abdukhakimova Zumradkhan. "WAYS OF FORMING THE READINESS OF CHILDREN WITH UNDERDEVELOPED SPEECH FOR WRITTEN SPEECH." (2023).
19. Madinakhan, Makhmudova, and Abduvahobova Irodakhan. "PECULIARITIES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." (2023).
20. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "Importance of didactic games in speech development of mentally retarded children." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.11 (2022): 20-23.
21. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
22. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).

23. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
24. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
25. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
26. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
27. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
28. Shuxratovich, Maxmudov Xurshid. "Socio-Psychological Of Children With Speech Impairment Adaptation Features." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11* (2022): 243-248.
29. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Isodullayeva Iqboloy. "PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH ACTIVITY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 765-771.
30. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Tahirova Mahliyo. "Ways To Increase The Vocabulary Of Mentally Retarded Children Of Preschool Age Based On Plot Role-Playing Games." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.2 (2023).
31. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "IMPORTANT ASPECTS OF COLLABORATIVE ACTIVITIES IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." (2023).
32. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Khomidova Shahribonu. "PEDAGOGICAL TASKS OF SPEECH THERAPIST AND PARENT COOPERATION IN ELIMINATING SPEECH DEFECTS." *American Journal of Interdisciplinary Research and Development* 16 (2023): 38-41.